Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA SONLAR ISHTIROKIDAGI QOLIPLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Olimova Mushtariybonu Azizjon qizi

ToshDO‘TAU 3-bosqich talabasi

olimovamushtariybonu2005@gmail.com, +998877702709

Ilmiy rahbar:f. f. d., prof, **Zulxumor Xolmanova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarida sonlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Tahlil jarayonida sonlarning narsa-buyum, shaxs va tana a’zolari miqdorini ifodalashdagi o‘rni, shuningdek, muddat, yosh, taqsimlash, muvofiqlik, butun–qism munosabatlari hamda miqdoriy gradatsiyani aks ettirishdagi funksiyalari yoritilgan. Sonlar ishtirokidagi maqollarning struktur-semantik qoliplari aniqlanib, ularning qarama-qarshilik, mubolag‘a, gradatsiya va takroriy sintaktik tuzilmalar asosida shakllanishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek xalq maqollari, sonlar semantikasi, lingvokulturologiya, paremiologiya, sonlar ramziyligi, struktur-semantik qoliplar, gradatsiya, butun–qism munosabati, muvofiqlik, taqsimlash tushunchasi.

Abstract: This article investigates the semantic and linguocultural characteristics of numbers in Uzbek folk proverbs. The analysis focuses on the role of numbers in expressing the quantity of objects, individuals, and body parts, as well as their functions in representing duration, age, distribution, compatibility, whole–part relationships, and quantitative gradation. The study identifies the structural-semantic patterns of proverbs containing numbers and demonstrates that they are formed on the basis of contrast, hyperbole, gradation, and repetitive syntactic structures.

Keywords: Uzbek folk proverbs, semantics of numbers, linguoculturology, paremiology, symbolism of numbers, structural-semantic patterns, gradation, whole–part relationship, compatibility, concept of distribution.

Lingvokulturologiyada sonlar xalqning olamni konseptuallashtirish usullarini ifodalovchi madaniy kodlardan biri sanaladi. Har bir millat muayyan sonlarga o‘ziga xos ramziy ma’nolar yuklaydi. Mazkur ma’nolar xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, maqol va matallarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Professor D. Nabiyevaning aytishicha, sonlarni faqatgina matematik belgi sifatida talqin etish va tushunish ularning funksiyasini to‘liq ochib berish imkoniyatini sezilarli darajada toraytiradi, tahlil imkoniyatlarini kamaytiradi. Sonlarga bu kabi sirtdan qarash natijasida son faqat tug‘ilish va tug‘ilgan kun, sana, vaqt, pul, telefon raqami, identifikatsiya kodi, iqtisodiy ko‘rsatkichni bildiruvchi birlik bo‘lib qolishi, shuning uchun bunday biryoqlamalikdan uzoqlashib, sonlar semantikasiga jiddiyroq yondashish kerakligi haqida aytib o‘tadi. Ularni milliy-madaniy belgini ifodalovchi ko‘rsatkich sifatida tadqiq etish, lingvistik jihatdan o‘rganish uning funksiyalarini yanada to‘liqroq namoyon etishini ta’kidlaydi[3; 294].

Paremiyalar tarkibidagi sonlar turli ma’no ottenkalarini hosil qilishi, xalqning ma’naviy, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hayoti izlarini namoyon qilishi mumkin[2; 63-64]. O‘zbek xalq maqollarida sonlar denotativ ma’nodan tashqari ma’lum muddat, miqdoriy gradatsiya, butun-qism munosabati hamda yoshga oid konseptual ma’nolarni ifodalovchi vosita sifatida ham xizmat qiladi.

- Narsa-buyum miqdorini ifodalagan: **2=** Qars ikki qo‘ldan chiqadi.
- Shaxs miqdorini ifodalagan: **1+1000=** Bir kishi ariq qazar, ming kishi suv ichar.

- Tana a’zolari miqdori**: 5**= Besh qo‘l barobar emas.
- O‘ttiz tishdan chiqqan gap o‘ttiz elga tarqalar.
- Muvofiqlikni bildirgan: **15+15=** Oyning o‘n beshi qorong‘i, o‘n beshi yorug‘.
- Taqsimlash tushunchasini ifodalagan: **1+1=** Bir kulgining bir yig‘isi bor.
- Zidlikni bildirgan: **1↔1000**: Birni sochsang yerga, mingni berar elga.
- Sonlar maqollar mazmunidagi muddatni ifodalagan**: 1+1000**= Ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar.
- Sonlar maqollar mazmunidagi miqdoriy gradatsiyani ifodalagan:
- **1+1000+1000**= Birniki mingga, mingniki tumanga.
- Butun-qism munosabatini ifodalagan**: 2+15+1+30**= Ikki o‘n besh – bir o‘ttiz.
- Yosh tushunchasini ifodalagan: **30+40**= O‘ttizida er atalgan qirqida sher atalar.

Sonlar qatnashgan maqollarda eng ko‘p uchraydigan maqol shakllaridan biri qarama-qarshilik hisoblanadi. Bunda kichik va katta sonlar o‘zaro zid qo‘yilib, muayyan hayotiy haqiqat ta’sirchan tarzda ifodalanadi: “Bir yomon ming yaxshini rasvo qiladi”, “Ming marta eshitgandan, bir marta ko‘rgan afzal”[4] kabi maqollar bunga misol bo‘la oladi. Mazkur qolipda sonlar nafaqat miqdoriy, balki baholovchi-ekspressiv vazifani ham bajaradi.

Yana biri muvofiqlik va moslik ma’nosini anglatuvchi maqol shaklidir. Bunday maqollarda sonlar predmet va hodisalarning tabiiy mutanosibligini ifodalaydi: “Bir boshga bir o‘lim”, “Bir etikka ikki oyoq tiqilmas” kabi maqollar shular jumlasidandir. Ushbu qolip xalqning hayotiy tajribasi asosida shakllangan me’yoriy qarashlarni aks ettiradi.

Shuningdek, mubolag‘ali sonlar qolipi ham alohida e’tiborga loyiq. O‘zbek xalq maqollarida yetti, qirq, yuz, ming kabi sonlar ko‘pincha aniq miqdorni emas, balki ko‘plik, cheksizlik yoki nihoyatda katta darajani ifodalash uchun qo‘llanadi. Masalan, “Bir yigitga qirq hunar oz” maqolida qirq soni real hisob birligi emas, balki ko‘plab hunarlarga ega bo‘lish zarurligini ifodalovchi lingvomadaniy ramz sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, sonli maqollar tarkibida juft sonlar asosidagi qoliplar ham uchraydi. Masalan, “Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamas”, “Ikki kemaning boshini tutgan g‘arq bo‘lar”[5] kabi maqollarda ikki soni qarama-qarshilik, tanlov yoki kelishmovchilik tushunchalari bilan bog‘liq holda qo‘llanadi.

Shuningdek, o‘zbek xalq maqollaridagi sonlar ishtirokidagi muayyan qoliplar mavjud:

1) **1=** Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun.

2) **1+2=** Bir qilgan – madad, ikki qilgan – odat.

3) **1+7=** Bir bolaga yetti mahalla – ota-ona.

4) **1+10=** Birni kessang, o‘nni ek.

5) **1+40=** Bir kun tuz ichgan joyingga, qirq kun salom ber.

6) **1+100=** Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi.

7) **1+1000=** O‘g‘ri bitta – gumon mingta.

8) **7=** Yetimning haqi yetti daryoni quritar.

9) **32=** So‘zdan so‘zning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor.

10) **10+40=** O‘nta bo‘lsa o‘rni boshqa, qirqta bo‘lsa – qilig‘i.

11) **1000+1=** Ming daraxt boshini bir bolta chopar.

Demak, son qatnashgan maqollarni tadqiq etishda ularning faqat semantik xususiyatlarini emas, balki struktur-semantik qoliplarini ham o‘rganish muhimdir. Chunki aynan ana shu qoliplar sonlarning xalq tafakkuridagi o‘rnini, milliy-madaniy mazmunini hamda o‘zbek xalq maqollarining lingvokulturologik tabiatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

O‘zbek xalq maqollarida sonlar faqat matematik miqdorni ifodalovchi birlik sifatida emas, balki murakkab semantik va lingvokulturologik mazmunga ega bo‘lgan til vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Sonlar maqollar tarkibida narsa-buyum, shaxs, tana a’zolari miqdorini, shuningdek, muddat, yosh, taqsimlash, muvofiqlik, butun–qism munosabatlari hamda miqdoriy gradatsiyani ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy munosabatlarga doir tasavvurlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birlik hisoblanadi.

Ta’kidlash kerakki, sonlar ishtirokidagi maqollar ma’lum struktur-semantik qoliplar asosida shakllanadi. Bunday qoliplar maqollarning ixchamligi, obrazliligi va ta’sirchanligini ta’minlaydi. Shuningdek, maqollarda qo‘llangan ayrim sonlar o‘zining bevosita denotativ ma’nosidan uzoqlashib, milliy-madaniy ramz darajasiga ko‘tariladi. Xususan, bir soni birlik va yagonalik yoki umumiylikni, ikki soni juftlik va qarama-qarshilikni, qirq, yuz, ming sonlari ko‘plik, cheksizlik hamda mubolag‘ani ifodalovchi konseptual birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa sonlarning xalqning lisoniy manzarasi va etnomadaniy tafakkuri bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi. Shu jihatdan, sonlarning maqollardagi semantik va funksional xususiyatlarini kompleks tarzda tadqiq etish o‘zbek paremiologiyasi hamda lingvokulturologiyasi rivojiga munosib hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Samandarova G. (2026). Son komponentli o‘zbek xalq maqollarining lingvistik va statistik tahlili // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. Toshkent.

2. Xolmanova Z., Valieva G., Muhammadieva D.(2022). O‘zbek tilidagi paremiyalar tadqiqi. – Toshkent: “Mahalla va oila”.

3. Xolmatova O. (2023). O‘zbek xalq maqollarida miqdor konseptining kognitiv xususiyatlari // Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. Toshkent.

4. https://talimresurslari.uz/maqollar/son-qatnashgan-maqollar/

5. https://bilimlar.uz/matematik-maqollar-toplami/